



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2022-yil 3-mart

## **O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 3-mart sanasidagi savdo yakunlari**

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2022-yil 3-mart sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 3-mart kuni "O'zkiyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali 15555 tonna 49601,1 mln. so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 2-mart kuni 49859,6 mln. so'mlik 15849 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammofos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 57,6 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkiyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinasiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 3-mart kuni jami 4225,8 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 2-mart kuni 4640,4 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 45,5 foizini PVX mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkiyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkiyosanoat.uz](http://www.uzkiyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkiyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkiyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/birja20220303>